



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш... Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalarida samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

AKSIONERLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING MOLIYAVIY
SAMARADORLIKKA TA’SIRI XUSUSIDA

О ВЛИЯНИИ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ФИНАНСОВУЮ
ЭФФЕКТИВНОСТЬ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

ON THE IMPACT OF CORPORATE GOVERNANCE ON FINANCIAL EFFICIENCY IN
JOINT-STOCK COMPANIES

Axtamov Alisherbek Ulug‘bek o‘g‘li.
Toshkent davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya

Maqolada aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy natijalarga ta’siri tahlil qilingan. Korporativ boshqaruv investorlar ishonchini mustahkamlash, kapital jalb qilish va kompaniya qiymatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda agentlik, manfaatdor tomonlar va resurslar nazariyalari asosida boshqaruvning samaradorlikka ta’siri, moliyaviy ko‘rsatkichlar va boshqaruv elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, moliyaviy samaradorlik, aksionerlar, shaffoflik, direktorlar kengashi, investitsion jozibadorlik, risklarni boshqarish

В статье анализируется влияние корпоративного управления на финансовые показатели акционерных обществ. Корпоративное управление играет важную роль в укреплении доверия инвесторов, привлечении капитала и повышении стоимости компании. В исследовании показано влияние управления на показатели эффективности, взаимосвязь между финансовыми показателями и элементами управления на основе агентской, заинтересованной и ресурсной теорий.

Ключевые слова: корпоративное управление, финансовые показатели, акционеры, прозрачность, совет директоров, инвестиционная привлекательность, управление рисками.

The article analyzes the impact of corporate governance on the financial performance of joint-stock companies. Corporate governance plays a key role in enhancing investor confidence, attracting capital, and increasing company value. The study examines the effect of governance on efficiency based on agency theory, stakeholder theory, and resource-based theory, highlighting the relationship between financial indicators and governance mechanisms.

Keywords: corporate governance, financial performance, shareholders, transparency, board of directors, investment attractiveness, risk management.

Hozirgi globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi izchil amalga oshirilayotgan hozirgi bosqichda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shirishini ta’minlash va investitsion muhitni yanada yaxshilashda aksionerlik jamiyatlarining samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda sanoat siyosatini davom ettirish, yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ulushini oshirish hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga ko‘paytirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lib, bu jarayonlar korporativ boshqaruv tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etadi. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy natijalarni yaxshilash, boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish va investitsiyalarni faol jalb etish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, korporativ boshqaruvning aksionerlik jamiyatlari moliyaviy samaradorligiga ta’sirini tadqiq etish bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Korporativ boshqaruv tizimi moliyaviy samaradorlikka bevosita ta’sir ko’rsatib, uni oshirishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo’ladi. Shaffoflikning kuchayishi, investorlar huquqlarining ishonchli himoyasi hamda resurslarning oqilona taqsimlanishi natijasida kompaniya aktivlari va kapitalidan foydalanish samaradorligi ortadi, sof foyda va korxonada qiymatining o’sishi ta’minlanadi. Shu bilan birga, samarali korporativ boshqaruv investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratib, risklar va xarajatlarni kamaytiradi, chunki boshqaruv faoliyati ustidan nazorat va javobgarlik mexanizmlari mustahkamlanadi. Natijada, kuchli korporativ boshqaruv tizimiga ega kompaniyalar barqaror rivojlanish va uzoq muddatli daromadlilikka erishadi, bu esa ularning asosiy moliyaviy ko’rsatkichlarida o’z aksini topadi.

Korporativ boshqaruv zamonaviy bozor iqtisodiyotida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi muhim institusional mexanizm hisoblanadi. U kompaniyani boshqarishda aksiyadorlar, direktorlar kengashi, ijroiya organlar va boshqa manfaatdor tomonlar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar, tamoyillar va institutlar majmuini ifodalaydi. Korporativ boshqaruvning asosiy maqsadi kompaniya resurslaridan samarali foydalanish, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashdan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik va boshqaruv funksiyalarining ajralishi korporativ boshqaruvga bo’lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Aksiyadorlar kompaniyaga kapital kiritgan holda uning kundalik boshqaruvida bevosita ishtirok etmaydi, mazkur vazifalar esa professional menedjerlarga topshiriladi. Bu holat korporativ boshqaruv orqali manfaatlar uyg’unligini ta’minlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Korporativ boshqaruv tizimi kompaniya faoliyatining barcha yo’nalishlariga, xususan, uning moliyaviy natijalariga kompleks ta’sir ko’rsatadi. Boshqaruvning sifati qanchalik yuqori bo’lsa, moliyaviy qarorlar shunchalik asosli qabul qilinadi, risklar kamayadi va kompaniyaning bozordagi barqarorligi mustahkamlanadi. Shu bois korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri bir nechta o’zaro bog’liq yo’nalishlar orqali namoyon bo’ladi.

Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’sirini tahlili

№	Korporativ boshqaruv yo’nalishi	Asosiy mexanizm / chora-tadbir	Moliyaviy samaradorlikka ta’siri
1	Shaffoflik va hisobdorlik	Yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarni e’lon qilish, auditorlik tekshiruvlari	Investor ishonchi ortadi, axborot asimmetriyasi kamayadi, investitsiya hajmi oshadi
2	Aksionerlar huquqlarini himoya qilish	Minoritar aksionerlar huquqlari, dividend siyosati, ovoz berishda teng imkoniyatlar	Investor sodiqligi oshadi, kapital jalb qilish osonlashadi
3	Samarali boshqaruv va resurslarni taqsimlash	Direktorlar kengashi va menedjment qarorlarining sifatli qabul qilinishi, strategik rejalashtirish	Xarajatlar kamayadi, aktivlardan samarali foydalanish, rentabellik ko’rsatkichlari oshadi
4	Ichki nazorat va risklarni boshqarish	Ichki audit, nazorat mexanizmlari, qonuniylikni ta’minlash	Xatolik va firibgarlik kamayadi, moliyaviy barqarorlik oshadi
5	Investitsion jozibadorlik	Shaffof boshqaruv, yuqori sifatli qaror qabul qilish, investorlar bilan muloqot	Kapital jalb qilish osonlashadi, aksiyalar qiymati oshadi

Korporativ boshqaruv aksionerlik jamiyatlarining moliyaviy samaradorligiga turli yo’nalishlarda sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Birinchidan, shaffoflik va hisobdorlik muhim ahamiyatga ega, chunki kompaniyaning moliyaviy va operatsion faoliyati haqida aniq, to’liq va muntazam ma’lumotlar taqdim etilishi investorlarning ishonchini mustahkamlashga yordam beradi, axborot asimmetriyasini kamaytiradi va natijada kapital qiymatini pasaytirib, investitsiyalar hajmini oshiradi.

Xususan, O‘zbektelekom AJ yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarni ochiq e‘lon qiladi, auditorlik tekshiruvlarini muntazam amalga oshiradi va moliyaviy ma‘lumotlarni investorlar uchun qulay shaklda taqdim etadi. Bu nafaqat investorlar uchun kompaniya faoliyatini baholashni osonlashtiradi, balki ular bilan ochiq muloqot o‘rnatish imkonini ham beradi va investorlarning ishonchini mustahkamlaydi.

Ta‘kidlash joizki, bu yo‘nalishda korporativ boshqaruv mexanizmi asosan ma‘lumotlarning ochiqligi va hisobdorlikni ta‘minlash orqali amalga oshiriladi. Ya‘ni kompaniya o‘zining moliyaviy natijalari, aktivlar va mablag‘lardan foydalanish tartibi haqida muntazam hisobotlar tayyorlaydi va ularni aksionerlar hamda potensial investorlar uchun e‘lon qiladi. Bu jarayonda auditorlikning ahamiyati katta, chunki mustaqil auditorlar tekshiruvlari kompaniya hisobotlarining haqqoniyligini ta‘minlaydi va investorlar uchun ishonchli ma‘lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, shaffoflik va hisobdorlik aksionerlar bilan korporativ muloqotni faol qiladi. Xususan, O‘zbektelekom AJda yillik hisobot taqdimotlarida menedjment va direktorlar kengashi ishtirok etadi, aksionerlar savol berishi va kompaniya faoliyatiga oid fikr almashishi mumkin. Bu jarayon kompaniyadagi qarorlar ochiq va tushunarli ekanini ko‘rsatadi hamda investorlarning uzoq muddatli munosabatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Korporativ boshqaruvning aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy samaradorlikka ta‘sir etishining ikkinchi yo‘nalishi – aksionerlar huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Samarali korporativ boshqaruv tizimi barcha aksionerlarning, shu jumladan minoritar aksionerlarning ham huquqlarini adolatli ta‘minlashga qaratilgan. Bu mexanizm aksionerlar uchun ishonch muhitini yaratadi, ularni kompaniyada barqaror va uzoq muddatli investitsiya qilishga rag‘batlantiradi hamda moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Amalda, bu tamoyil qator mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, aksionerlar yig‘ilishlari va ovoz berish jarayonlarida barcha aksionerlarning fikrlari hisobga olinadi. Shuningdek, dividend siyosati adolatli belgilanib, minoritar aksionerlar manfaatlari himoya qilinadi. Ikkinchidan, korporativ qonunchilik va ichki reglamentlar asosida aksionerlarning huquqlarini buzilishidan himoya qilish, ovoz berishda va qaror qabul qilishda teng imkoniyatlarni ta‘minlash mexanizmini harakatini ta‘minlaydi. Uchin chidan, shaffof hisobotlar va ma‘lumotlar taqdimoti orqali aksionerlar kompaniya faoliyatini doimiy kuzatishi mumkin, bu esa manfaatlarining halol va to‘liq qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlaydi. Xususan, O‘zbektelekom AJ misolida ham ushbu mexanizmlar samarali ishlaydi. Kompaniyada minoritar aksionerlarning ovozlari hisobga olinadi, ularning fikrlari asosiy qarorlarda inobatga olinadi va dividend siyosati aniq va adolatli tarzda belgilanadi. Shu bilan birga, kompaniya hisobotlarini muntazam ochiq e‘lon qilish orqali aksionerlar kompaniyaning moliyaviy va operatsion faoliyatini qo‘ldan kelganicha kuzatib borish imkoniga ega bo‘ladi. Bu jarayon aksionerlar va menedjment o‘rtasida ishonchni mustahkamlaydi, minoritar investorlarning kompaniyada faol ishtirokini rag‘batlantiradi va natijada umumiy moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Korporativ boshqaruvning aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy samaradorlikka ta‘sir etishining uchinchi yo‘nalishi – samarali boshqaruv va resurslarni optimal taqsimlashdir. Bu yo‘nalishda direktorlar kengashi va menedjmentning qarorlar qabul qilish sifati muhim ahamiyatga ega. Kompaniya aktivlaridan samarali foydalanishi, xarajatlarni kamaytirish va rentabellik ko‘rsatkichlarini oshirish uchun qarorlar samarali tahlil va strategik rejalashtirish asosida qabul qilinishi kerak.

Amalda, bu yo‘nalishning samara bir qator mexanizmlar orqali ta‘minlanadi. Birinchidan, direktorlar kengashi va menedjment faoliyatida strategik va moliyaviy rejalashtirish tizimi mavjud bo‘lishi zarur. Bu, aktivlardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirishga yordam beradi. Ikkinchidan, qarorlar qabul qilishda zamonaviy tahlil vositalari, benchmarking va xarajat-samara hisobotlari qo‘llanilishi zarur. Bu kompaniyaning rentabellik ko‘rsatkichlarini, jumladan ROA (aktivlar qaytarimi), ROE (kapital qaytarimi) va ROS (sotishdan daromad)ni yaxshilash imkonini beradi.

O‘zbektelekom AJ bu mexanizmlar samarali qo‘llanadi. Kompaniya ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tahlil qiladi, xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘radi va

resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi. Bu natijada sof foyda va rentabellik oshadi, kompaniyaning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi hamda investorlar uchun qimmatli moliyaviy ko‘rsatkichlar yaratiladi.

Risklarni kamaytirish – korporativ boshqaruvning aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy samaradorlikka ta’sir etuvchi muhim yo‘nalishlaridan biridir. Korporativ boshqaruv tizimi kompaniyada ichki nazorat mexanizmlari, audit jarayonlari va qonuniylikka rioya qilishni ta’minlaydi. Bu esa moliyaviy faoliyatda xatoliklar va firibgarlik holatlarining yuzaga kelish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi hamda moliyaviy natijalarning barqarorligini ta’minlaydi.

Amalda, ichki nazorat va auditning samarali ishlashi kompaniyaning qarzlarni o‘z vaqtida qaytarishini, operatsion xarajatlarni nazorat qilishni va moliyaviy ko‘rsatkichlarning barqarorligini ta’minlaydi. O‘zbektelekom AJ ichki audit va nazorat tizimlaridan foydalangan holda moliyaviy hisobotlardagi xatolik va firibgarlik holatlarini minimal darajaga tushiradi. Shu bilan birga, kompaniyaning moliyaviy faoliyati yuzasidan qarzlarning o‘z vaqtida qaytarilishi va investitsiyalarning samarali boshqarilishi ta’minlanadi, bu esa uzoq muddatli barqarorlik va moliyaviy ishonchni mustahkamlaydi.

O‘zbektelekom AJ kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimi barqaror va samarali yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ichki va xorijiy investorlarning e’tiborini jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kompaniya o‘z faoliyati haqida aniq va muntazam ma’lumot berib, audit jarayonlari orqali moliyaviy hisobotlarni tasdiqlaydi, shu bilan birga aksionerlar huquqlarini himoya qilish va direktorlar kengashi qarorlarini shaffoflashtirishga e’tibor qaratgan. Natijada, investorlar kompaniyaga ishonch bildirib, kapital kiritishga tayyor bo‘ladi, bu esa aksiyalar qiymatini oshirish, investitsiya portfelini kengaytirish va moliyaviy imkoniyatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Shunday qilib, korporativ boshqaruv aksionerlik jamiyatlarining moliyaviy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va bu ta’sir bir nechta asosiy yo‘nalishlar orqali amalga oshadi. Birinchidan, shaffoflik va hisobdorlik investorlar ishonchini oshirib, axborot asimmetriyasini kamaytiradi, natijada kapital qiymati pasayadi va investitsiyalar hajmi ortadi. Ikkinchidan, aksionerlar huquqlarini himoya qilish tizimi minorizitar aksionerlarni qo‘llab-quvvatlaydi, ularning sodiqligini oshiradi va moliyalashtirish imkoniyatlarini yaxshilaydi. Uchinchidan, samarali boshqaruv va resurslarni optimal taqsimlash qarorlar sifatini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va rentabellik ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. To‘rtinchidan, ichki nazorat va audit mexanizmlari orqali risklar kamayadi, moliyaviy natijalar barqarorlanadi. Nihoyat, yuqori sifatli korporativ boshqaruv investitsion jozibadorlikni oshirib, kompaniyani investorlar uchun yanada qiziqarli qiladi va kapital jalb qilishni osonlashtiradi.

O‘zbektelekom AJ misolida ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi mexanizmlar amalda samarali ishlaydi: kompaniya yillik va choraklik hisobotlarni ochiq e’lon qiladi, aksionerlar huquqlari himoya qilinadi, resurslar samarali taqsimlanadi va risklar kamaytiriladi. Shu bilan birga, kompaniya yuqori investitsion jozibadorlikka ega bo‘lib, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu tariqa, korporativ boshqaruv aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy samaradorlikni oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yunusov M. *The impact of corporate governance on firm performance and financial stability // Green Economy and Development.* — 2024. — Vol. 1, No. 3. — URL: (online)
2. *Corporate governance and financial performance: The role of ownership and board structure // Journal of Business Research.* — 2018. — Vol. 89. — P. 229–234.
3. Маков А.Г. Влияние корпоративного управления на эффективность деятельности компании // Вестник университета. — № 5, 2015. — С. 115–118.
4. Urinov B., Kenjayeva U. *Impact of Corporate Governance on Business Value: A Literature Review // Economics and Innovative Technologies.* — 2023. — Vol. 11, № 4. — Pp. 129–136.
5. Ibragimov G. G‘anijon, Nurlibekov J. *The Impact of Corporate Governance on Firm Profitability // International Journal of Artificial Intelligence.* — 2025. — Vol. 5, № 12. — Pp. 1016–1020.